



(dastlabki ma'lumot)


ISTE'MOL BOZORI

2018 yil yanvar-may

Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 %ga oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 5,8 %ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,9 %ni tashkil qildi.


2018 yil yanvar-may oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Guliston shahri (39,0 foiz), Sirdaryo (11,4 foiz), Sardoba (9,1 foiz) va Guliston (9,0

foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovarlar aylanmasi aholi jon boshiga 1,4 foizga oshib, 1109,3 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-may oylarida 898,4 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (4012,6 ming so'm), Yangiyer shahri (1726,8 ming so'm) va Sardoba tumanida (1292,2 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 14,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2,1 %ga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,6 %ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi




	Ming so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	1109,3	100,5
Guliston shahar	4012,6	107,1
Shirin shahar	607,8	90,4
Yangier shahar	1726,8	95,3
Boyovut tumani	392,8	95,1
Guliston tumani	1173,3	96,3
Mirzaobod tumani	752,8	94,3
Oqoltin tumani	583,7	93,4
Sardoba tumani	1292,2	101,0
Sayxunobod tumani	507,8	102,1
Sirdaryo tumani	833,2	99,3
Xovos tumani	366,9	92,5

KICHIK TADBIRLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 %ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidan 93,5 %ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning umumiyl tovar aylanmasi hajmidan 87,2 mld. so'mni uyushmagan savdo tashkil qiladi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,6 %ni tashkil etdi.




Chakana savdo tovar aylanmasi umumiyl hajmida eng katta ulush Guliston tumanida 99,6 %, Sardoba tumanida 99,6 %, Xovos tumanida 99,0 %, Oqoltin tumanida 98,7 %, Mirzaobod tumanida 97,3 % va eng past ulush Guliston shahrida 88,0 % qayd etildi.

2018 yil yanvar-mart oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-may oylarida ulgurji tovar aylanmasi 461,3 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 100,9 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati ko`payishi kuzatilgan hududlar quyidagilardan iborat: Xovos tumani 238,9 %, Sardoba tumani 103,9 %, Guliston shahar 108,4 %.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 4,1 %ga oshdi va 154,3 mlrd. so'mni tashkil qildi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 57,3 %ni tashkil qildi.



Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
бош мутаксиси

Nashr uchun mas'ul: М.Пўлатова
(0371) 230-86-16